



## Ingliz va Turkiy tillar tilshunosligida frazeologizmlar talqini tarixiga nazariy qarashlar

Axmedov A'zimjon Ilxomovich

Andijon davlat chet tillari instituti  
Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti  
Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va  
tarjimashunoslik kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Hayotimiz davomida atrofimizda ko'plab voqeа – hodisalarga duch kelamiz. Shunday holatlarda har safar biz o'zimiz uchun yangiliklar olishni xohlaymiz va ularning tarixi haqida qiziqamiz. Aslida biz o'ziga xos milliy xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy, intellektual va hissiy ma'lumotlarni to'playmiz. Hozirgi kunda bizning muloqotimizga o'zgacha ko'rк beruvchi frazeologiya bo'limi ko'plab olimlar diqqat e'tiboriga tushib ulgurgan desam adashmayman. Aslida frazeologiya - turli xil filologik tekshiruvlarning mashhur sohasi hisoblanadi. Olimlarning fikrlariga ko'ra frazeologik birliklar madaniyat hodisalari sifatida tushunish bilan bog'liq bo'lib, ularning madaniy xususiyatlari ular ishtirok etgan gaplarda o'rganiladi. Xalqning mehnat va madaniy hayotining ko'p asrlik tajribasini, uning donishmandligi, urf-odatlari, an'analarini, e'tiqodlarini va qadriyatlarini aks ettiruvchi frazeologizmlar har qanday tilni, uning rivojlanayotgan tizimini bilishning eng boy manbalaridan biridir. Maqolada frazeologizmlarning ingliz va turk tilshunoslari tomonidan o'rganilishi, fanga kirib kelish tarixi va rivoji haqida ma'lumolar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, sintaktik xususiyat, frazeologiya, iboralar, ma'no va shakl, turg'un so'zlar, ko'chma ma'no, obraz, maqol, matal.

### Kirish

Frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarning jadal rivojlanishi turli tillarning frazeologik tizimini ochish va tavsiflash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Uni o'rganishning lingvoqiyosiy jihatи hali o'z muammolarini tugatmagan.



Frazeologik birikmalar asosan so'zlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg'un so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa xildagi tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma'lum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas. Shu ma'noda frazeologik olim A.V. Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan. Ammo ba'zi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu ma'noda frazeologiya tilning umumiyligiga kiruvchi mikrosistema bo'lib, bu tizim o'zida o'tmish merosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avloddan – avlodga o'tadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligi ma'lum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari o'rtaqidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosini muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lsa ular nutq birligi bo'lidan gaplardan farq qiladi. Ular lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lidan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

### Asosiy qism

Frazeologiyaning obyektini belgilashda turli xil farazlar mavjud. Frazeologiyaning obyektini faqat turg'un birikmalar tashkil qiladi. Frazeologiya fani frazeologik birliklarni ma'noviy struktural xususiyatlarini tadqiq qiluvchi, ularning til sistemasida paydo bo'lishi va nuqtada ishlatish xususiyatlarini o'rganuvchi fan deb ta'riflangan.

"Frazeologiya" atamasi yunoncha "frama" (phrasis- ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lsada, bu atama turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababdan



frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami ma'nosida, hamda shunday birliklarni o'rganuvchi soha ma'nosida. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilm demakdir.

Tilshunoslikning boshqa sohalari singari frazeologiya ham o'zining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Frazeologizmlar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani qariyb ikki yuz yilni o'z ichiga oladi. Frazeologiya ilmining asoschisi shveytsariyalik olim Sharl Ballidir. U o'zining "Frantsuz stilistikasi" (1909) nomli asarida so'z birlashmali, ya'ni frazeologik birliklarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Ferdinand de Sossyur esa sintagma, uning belgilari haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Tilda shunday tayor birliklar borki, ularning lisoniy tabiat ma'nosи va sintaktik xususiyatidan kelib chiqdi, bunday birikmalar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llanadi, degan edi.

O'rta Osiyolik mashur allomalarining jahon madaniyati, ma'rifati, ilm-faniga qo`shgan hissasi ulkandir. Jahon tan olgan buyuk allomalar: Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az-Zamahshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning tilshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmatlari kattadir.

Zamaxshariyning «Asos ul-balogs'a» («Chechanlik asoslari») asari ham bo'lib, ushbu manba, asosan, lug`atshunoslikka oiddir. Kitobda arab tilining mukammaligi haqida, so`z, so`zlarning ma`no xususiyatlari, so`zlarning ko`chma ma`noda qo'llanishi, ko`chma ma`nolarning paydo bo`lish sabablari, shuningdek, nutqning asosiy birligi sifatida faqat so`z emas, balki frazeologik birliklar ham olinib, ulardan nutq faoliyatida foydalanish usullari haqida atroflicha ma`lumotlar beriladi.

Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho'ponzoda va F.Og'azoda "Turk tili grammatikasi" asarida til bo'limlari haqida fikr yuritib, "Semasiologiya", "Stilistika" atamalari bilan birga o'sha davrda tilshunoslikda keng qo'llanilishda bo'lgan "Idiomatizm" atamasini ishlatgan. Mualliflar bu asarda turk tilidagi idiomalarga oid "boshga solmoq", "boshga tushmoq",



“ко‘з ко‘рмоқ” каби бирликларни misol sifatida keltiradilar. Umuman, frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan keyin paydo bo‘lgan. Uni sistemali ravishda o‘rganish faqat o‘tgan asrning 40-50-yillariga kelib boshlandi. Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari turkiyshunos olimlar S.K.Kenesboyev va Sh.U.Rahmatullayevlar hisoblanishadi. Ularning o‘tgan asrning 40-yillarining ikkinchi yarmi va 50-yillarda yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi. Shundan keyingi 30-40 yil mobaynida turkiy tillardagi frazemalarni intensiv o‘rganish bo‘yicha muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda S.N.Muratovning “Turkiy tillarda turg‘un so‘z birikmalar”, Sh.U.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ayrim masalalari” (1966) kabi ishlari yaratildi. Rus tilshunosligida bo‘lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma’noda tushunish hamon davom etib kelmoqda. Jumladan, akademik S.K.Kenesboyevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma’noda barcha turg‘un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, turg‘un ideomatik guruhlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiyl xususiyat turg‘unlik va tilda tayyor holda mavjudlidigidir. Frazeologiya obyektini tor ma’noda tushunishning faol tarafdarlaridan biri, yirik turkiyshunos A.A.Yo‘ldoshev edi. U frazeologiya obyekti tor doirada tushunilsa, “Frazeologiyaning o‘rganish doirasi aniqroq namoyon bo‘ladi, undan haqli ravishda bo‘linmas leksik birliklar, jumladan maqol, matal, hikmatli so‘z va aforizmlar chiqib ketadi, chunki ular struktura jihatdan yaxlit holda qo‘llanuvchi sintaktik birliklardir”, - degan fikrni olg‘a suradi.<sup>4</sup>

Frazeologiya tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tez rivojlangan sohalardan biridir. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha ilgari o‘rganila boshlangan bo’lsa, o‘zbek tilshunosligida bu soha sistemali ravishda o‘rganila boshlanganini o‘tgan asrning 40-50- yillariga to‘g’ri keladi. Bu sohada Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, M. Husainov, I.Qo‘chqortoyev kabi olimlar ilmiy ish olib bordilar, Jumladan, Sh.Rahmatullayev «O‘zbek

<sup>4</sup> Malika Jamoldin Qizi Bekiyeva Frazeologiya bo‘limining mustaqil fan bo‘lib shakllanishi // Science and Education. 2022. №1. URL:  
<https://cyberleninka.ru/article/n/frazeologiya-bo-limining-mustaqil-fan-bo-lib-shakllanishi> (дата обращения: 03.09.2022).



frazeologiyasining ba'zi masalalari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shunday qilib, o'zbek tili frazeologiyasini o'rghanish hozir ham davom etmoqda. Jumladan, B.Yo'ldoshev "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Frazeologik birliklar turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, prof. Sh.Rahmatullayev o'zining «Hozirgi o'zbek adabiy tili», Toshkent, 1965-yil kitobida frazeologik birliklarni alohida tadqiq etmay, leksik hodisalar qatorida ular bilan birga o'rghanadi: leksik sinonimlar va frazeologik sinonimlar va frazeologik Sinonimiya yoki leksik antonimiya va frazeologik antonimiya kabi.

## Natijalar va muhokamalar

O'zbek tilining frazeologik boyligini o'rghanishga bag'ishlangan mukammal tadqiqotlarga egamiz. Adabiy til lug'at tarkibining taraqqiyoti va boyishi xalq shevalari bilan uzviy va chambarchas bo'g'liqdir. Adabiy til normalarini belgilashda xalq shevalarining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga suyanadi va ma'lum o'ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanadi. Shunday ekan milliy tilning xalq shevalaridagi ko'chma ma'noli iboralarni o'rghanish ham hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotining, uning boyib borish yo'llarini belgilovchi omillardan biri bo'ladi. O'tgan asrning 50-yillarigacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanib yetmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar A.G'ulomov, U.Tursunov, V.Abdullayev, H.Zarif, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A.Sa'diy, V.Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A.Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. O'zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar o'tgan asrning 50-yillarining boshida yuzaga keldi.



Ular qatoriga Sh.Rahmatullayevning ishlarini kiritish mumkin. Masalan, Sh.Rahmatullayev idiomatik so‘zlar haqidagi fikrini rivojlantirib, til birliklarini etimologik jihatdan qo‘shma so‘zga teng idiomatik so‘zlar deb tahlil qilgan. Uning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasining yana bir xarakterli tomoni shundaki, undan frazeologik omonimlarni frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalardan farqlashga harakat qilinganligidir. Sh.Rahmatullayevning talqiniga ko‘ra o‘zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar shuningdek frazeologik omoformalar va frazeologik paraformalar birbiriga shu qadar o‘xhash bo‘ladiki, ulardan biri o‘rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin. Agar iboralar o‘zaro tarkibidagi biror so‘z komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo‘ladi. Masalan, “ko‘nglini ko‘tarmoq” – “ko‘ngli ko‘tarildi” va “ko‘nglini tog‘day ko‘tarmoq” – “ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi”. Agar ba’zi iboralar biri ikkinchisida yo‘q garmmatik shakllanish sistemasiga ega bo‘lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Masalan, “jon(i)kirdi” – “jonini kirgizmoq” va “jon kirdi” – “jon kirgizmoq” kabilar. So‘nggi yarim asr davomida frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo‘ldi, bir qator monografiyalar ilmiy izlanishlar natijasida uning ob’yekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa sohalari qatorida o‘z o‘rnini shakllantirdi.<sup>5</sup>

## Hulosi

O‘zbek tiliga oid boshqa darslik va qo‘llanmalarda esa iboralar semantik jihatdan qo‘shilma, birlashma, chatishma, morfologik jihatdai ot, sifat, fe'l, ravish, frazeologik iboralar, deb tasnif qilinganini ko‘ramiz. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (Toshkent, 1980) kitobida esa bunday tasniflar uchramaydi va bunday klassifikatsiyalarning ahamiyati yo‘q deb qayd etiladi. Frazeologizmlarda hech qanday «qo‘shilish», «chatishish» kabi hodisalar yo‘q deyilgan. Balki uning o‘rniga frazeologik ma’no strukturasi, iboralardagi polisemiya,

<sup>5</sup> Xudoyqulov, Behzod. "FRAZEOLOGIZMLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI (italyan tilidagi iboralar misolida)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.Special Issue 2 (2021): 308-315.



omonimiya, sinonimiya va antonimiylar alohida tadqiq qilingan. Bizningcha ham, shu yo`l to`g`riga o`xshaydi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Musaev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati - T., 1996.
2. Salomov G'. Til va tarjima. - Toshkent: "Fan", 1966
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб. М.: Высшая школа, Дубна: Изд. центр «Феникс», 1996
4. Semantic structures of English phraseological units and proverbs with proper names. Dissertation paper. SamSIFL. N.Ochilova. 2014
5. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. Тексты лекций. – Самарқанд: СамГИИЯ, 2004
6. Challenges of translating phraseological units. Procedia - Social and Behavioral Sciences 70 ( 2013 ) 1487 – 1492. Akdeniz Language Studies Conference 2012 (source: ScienceDirect). Victoria Subbotina, Kazakh-British Technical University, English Language Department. Almaty city, Kazakhstan
- 7 Malika Jamoldin Qizi Bekiyeva Frazeologiya bo'limining mustaqil fan bo'lib shakllanishi // Science and Education. 2022. №1. URL:  
<https://cyberleninka.ru/article/n/frazeologiya-bo-limining-mustaqil-fan-bo-lib-shakllanishi>  
(дата обращения: 03.09.2022).
8. Xudoyqulov, Behzod. "Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari (italyan tilidagi iboralar misolida)." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.Special Issue 2 (2021): 308-315.